

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2023

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент кимё - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алнева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети


Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

1. Валишер Элмуродович Абиров ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ: ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА МУНОЗАРА.....	5
2. Жалолиддин Тухташевич Аннаев ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ ТАРМИТА-ТЕРМИЗДА БУДДАВИЙЛИК.....	13
3. Феруза Парходовна Атамуратова ҚАДИМГИ ВА ЎРТА АСРЛАР ДАВРИДА ТАРМИТА-ТЕРМИЗ.....	21
4. Мунаввар Абдурашид қизи Атамирзаева МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ.....	28
5. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ЎЗБЕКИСТОН ШИФОБАХШ ЖОЙЛАРНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ИЛМИЙ ЭКСПЕДИЦИЯЛАР ВА ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ИШЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИ....	35
6. Рашидахон Муқимовна Аҳмедова ТУРКИСТОН ТАБИЙ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛМИЙ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....	40
7. Дилафруз Аҳмедова Хусан қизи МАКТУБЛАР МАНБА СИФАТИДА.....	46
8. Oхunjon Axmat o'g'li Boboqulov MUSTAQIL KONGO DAVLATINING SSSR BILAN DIPLOMATIK ALOQALARI (davriy matbuot gazetalari tahlili asosida).....	53
9. Феруза Хаятовна Бобожонова БУХОРОДА МАКТАБ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТАРИХИ (XIX АСР ОХИРИ-XX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРМИ).....	58
10. Omon Olimjonovich Gadayev MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI.....	65
11. Дилорам Зияева МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ЎРТА АСРЛАРДА ЮЗ БЕРГАН УЙҒОНИШ. ВАТАНДОШЛАРИМИЗНИНГ ЖАҲОН ТАМАДДУНИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ.....	71
12. Farxod Sobirovich Ziyayev TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	77
13. Ubaydulla Mamat o'g'li Ismoilov SUYURLITEPA YODGORLIGI O'RNIDAGI SHAHARNING TARIXIY NOMI XUSUSIDA MULOHAZALAR.....	84

14. Baxtiyor Safarovich Nazirov JADID VAKILLARINING AHOLINI SOG‘LOMLASHTIRISH BORASIDAGI QARASHLARI.....	109
15. Рустам Абдуваид ўгли Неъматов ТУРК ХОҚОНЛИГИ ДАВРИДА ХОРАЗМ ВОҲАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	114
16. Дилорам Сангирова ЎРТА АСР ДАВЛАТЧИЛИК РАМЗЛАРИ СЎЗ ВА ТАСВИРДА.....	120
17. Lyudmila Mixaylovna Sokolova ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARIDAGI HUNARMANDLAR USTOZIGA BAG‘ISHLANISH MAROSIMINING IBTIDOSI HAQIDA.....	130
18. Фазилат Нормуродовна Тургунова СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ МУСИҚАЛИ ДРАМА ТЕАТРИ ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.....	142
19. Баходир Босимович Тўйчибоев ҚОЯТОШ ЁДГОРЛИКЛАРНИ САҚЛАШ ВА ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА.....	147
20. Раъно Нортўхтаевна Тўхтаева ЎЗБЕКИСТОНДА ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИДАН Кейинги ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТ...154	154
21. Dilshod Inomjon o‘g‘li To‘xtasinov NORIN VA QORADARYO ORALIG‘I HUDUDLARINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI VA UCHTERA-2 YODGORLIGINING ARXEOLOGIK JIHATDAN O‘RGANILISHI.....	159
22. Mansur Xayrullayevich Fayzullayev XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОННИНГ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИГА ДОИР МАСАЛАЛАРНИ ЎРГАНИЛИШИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	170
23. Rashid Mamatkulovich Xolmurodov TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK FANINI O‘RGANISHDA SHAROF RASHIDOV MUZEYI MANBALARIDAN FOYDALANISH.....	177
24. Tuyg‘un Rajabovich Ernazarov TURKISTON GENERAL GUBERNATORLIGIDA BOJXONA XIZMATINING TASHKIL ETILISHI VA UNING FAOLIYATIDAN LAVHALAR (Rossiya imperiyasi va Xitoy aloqalari misolida).....	182
25. Бахтиёр Эргашевич Юлдашев, Светлана Владимировна Темирова ЗАРДУШТИЙЛИКНИНГ МУҚАДДАС КИТОБИ “АВЕСТО”ДА СИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ҚАРАШЛАР.....	187
26. Алишер Яркулов АРХЕОЛОГИЯ МЕРОСИ ОБЪЕКТЛАРИНИ МУЗЕЙЛАШТИРИШ ТУРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ХУСУСИДА.....	195
27. Abdurahmonova Nodiraxon Xusnutdinovna HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR.....	202



Omon Olimjonovich Gadayev,
QarDU mustaqil tadqiqotchisi
Email: Omongadoyev@gmail.com

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK TARIXI

For citation: Omon O.Gadaev, BRIEF DEMOGRAPHIC HISTORY OF THE MAHALLA OF SAMARKAND REGION IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE. Look to the past. 2023, Special issue 1, pp.65-70

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8072207>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mustaqillik davrida Samarqand viloyati mahallalarining tarixiy demografiyasi, mahallalarning etnik tarkibi, aholi bandligi kabi masalalar qisqacha tahlil qilib o'tilgan. Mahallalar bugungi kunda ham milliy o'zligi va an'alarini saqlab qolayotganligi, o'tmish an'analardan ro'hiy ozuqa olayotganligi keltirilib o'tilgan. SHu bilan birgalikda, mahalla aholisining usishi, ularning ish bilan bandligiga doir ayrim xulosalar keltirilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla, etnik tarkib, demografik holat, an'ana, aholi bandligi, milliy o'zlik.

Омон Олимжонович Гадаев,
независимый исследователь КарДУ
Omongadoyev@gmail.com

ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ ИСТОРИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

АННОТАЦИЯ

В статье кратко анализируются такие вопросы, как история, демография, национальный состав окрестностей, занятость населения. Отмечено, что и сегодня кварталы сохраняют свою национальную идентичность и традиции, получая духовное питание от традиций прошлого. При этом сделаны некоторые выводы о росте населения микрорайона и их занятости.

Ключевые слова: Соседство, национальный состав, демографическая ситуация, традиции, занятость населения, национальная идентичность.

Omon O.Gadaev,
independent researcher of KarDU
Omongadoyev@gmail.com

DEMOGRAPHIC HISTORY OF SAMARKAND REGION IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

ABSTRACT

In this article, issues such as history, demography, ethnic composition of the neighborhoods, employment of the population are briefly analyzed in the article. It has been mentioned that even today the neighborhoods preserve their national identity and traditions, and receive spiritual nourishment from the traditions of the past. At the same time, some conclusions about the growth of the population of the neighborhood and their employment have been made.

Index Terms: Neighborhood, ethnic composition, demographic situation, tradition, population employment, national identity.

1. Dolzarbligi:

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning alohida viloyatlarida kechgan demografik jarayonlarni tarixiy tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Zero, bu mintaqalarning tarixiy rivojlanishi, o'ziga xos tabiiy-geografik sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik salohiyati, xududiy tarkibi, aholi joylashuvidagi turli shakllarning mavjudligi kabi xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Shunday hududlardan biri Samarqand viloyati hisoblanadi.

Samarqand viloyati-O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridan biri hisoblanadi. U 1938-yil 15-yanvarda tashkil topgan. Ushbu viloyat respublika hududining markaziy qismida, Zarafshon daryosining o'rta oqimi havzasida joylashgan. Uning chegaralari g'arb va shimoli-g'arbda Navoiy viloyati, shimol va shimoli-sharqda Jizzax va janubda Qashqadaryo viloyatlari, janubi-sharqda Tojikiston bilan tutash.

Viloyatning markaziy qismi go'zal vohadan iborat bo'lib, bu voha uncha keng bo'lmay sharqdan-g'arbga tomon Zarafshon va Turkiston tog' tizmalari orasini egallagan. Viloyatning asosiy sug'oriladigan yerlari xuddi ana shu maydonlarni egallagan. Aholi soni 2022-yil holatiga ko'ra, 4 mln 077 ming 400 kishi. Bu jihatidan Samarqand viloyati respublikada birinchi o'rinda va respublika aholisining 11.4 foizini tashkil etadi.

Mustaqillik yillarida Samarqand viloyatidagi demografik o'zgarishlar bevosita ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga bog'liq ekanligi va bu o'z navbatida viloyatdagi mavzud ijtimoiy muammolarni hal etish zaruriyatini yuzaga keltirayotganini ilmiy tahlil etish mavzu dolzarbligini belgilaydi. Ya'ni aholi bandligi muammosini hal qilishning eng asosiy yo'llari, asosan, tumanlar miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni faollashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan mos ravishda mahalliy ehtiyoj asosida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini jadal rivojlantirish shular jumlasidandir.

2. Metodlar:

Maqolada tarixiy-statistik, qiyosiy-taqqoslash kabi metodlardan foydalanilgan holda Samarqand viloyat mahallalarining mustaqillik davri qisqacha demografik tarixi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

3. Tadqiqot natijalari:

O'zbekiston mustakillikka erishgach mahallalarga bulgan munosabat butunlay uzgardi. 1993 yil fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'grisidagi qonun qabul qilindi va 1993 yil 17 avgustda O'zbekistonda "Mahalla" xayriya jamgarmasi tashkil etildi. Respublikamizning barcha viloyatlarida mahallalar tashkil etila boshladi. Xususan, Samarqand viloyatida ham bir nechta yangi mahallalar tashkil etildi. 2017 yilgacha viloyatda 210 dan ortiq mahallalar tashkil etildi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari to'grisida bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1993 yil 2 sentyabr kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi[1;3], 1994 yil 23 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy himoyalashning kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 1994 yilning 1 oktyabrdan boshlab oylik to'lovlar tarzida moddiy yordam ko'rsatishni amalga oshirilishi mahalla fuqarolar yig'inining ijtimoiy himoya faoliyati shakllanishiga dastlabki qadamlar quyildi[2;5]. Bundan tashqari 1999 yil 14 aprelda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonunga yanada oydinlik kiritilib, unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi, ularning asosiy prinsiplari, boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish, faoliyatni davlat tomonidan qo'llab

quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan[1;6]. SHuningdek 2004 yil 29 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" gi qonun[1;8] , 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" masalasiga oid qarori va 2013 yil 23 apreldagi "Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalalar kiritish haqidagi O'RQ-351-sonli qonuni asosida mahallalar faoliyati takomillashtirilib borildi[1;6].

1996 yil 30 avgustda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi ma'muriy hududiy tuzilishi toponimik obektlarga nom berish va ularni nomlarini o'zgartirish masalasini hal etish tartibi to'g'risida qonun qabul qilindi[2;3]. Shuningdek, 2004 yil 11 avgustda Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasida ma'muriy hududiy birliklar, aholi manzilgohlari va tarixiy joylarga nom berishni tartibga solish to'g'risidagi qaror asosida joy va obektlarni tarixiy, milliy an'analarimizga, milliy tafakkurimizga begona bo'lgan nomlar o'zgartirildi[3;3]. Birgina Samarqand shahridagi 400 dan ortiq ko'chalarning nomlari milliy g'oyamiz va ma'naviy qadriyatlarimiz asosida qayta o'zgartirildi. 2011 yil 12 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi geografik obektlarining nomlari to'g'risidagi (bu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2011 yil 4 martda qabul qilinib, senat tomonidan 2011 yil 26 avgustda ma'qullangan)[3;5].

SHu o'rinda Samarqand viloyat mahallari xususida so'z yuritishdan oldin viloyat aholisining demografik ko'rsatkichlari xususida so'z yuritish maqsadga muvofiqdir. Samarqand viloyati aholi soni 2011 yil ma'lumotlariga ko'ra, 3270,8 ming kishi bo'lib, shundan mehnat resurslari soni 1900,2 ming kishi, aholining ish bilan bandlik bo'lgan qismi esa 1269, 8 ming kishini tashkil etgan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan 2012 yilga qadar viloyat aholisi 151,7 foizga o'sgan. SHuni alohida qayd etish lozimki, respublika aholisi 1991-2010 yillar orasida 8,2 mln kishiga ortgan yoki 1,4 martaga ko'paygan bo'lsa, shuning 1 millioni Samarqand viloyat hissasiga to'g'ri keladi. Bunday holat viloyat aholisining mutloq o'sishida yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Natijada, respublikaning demografik rivojlanishida viloyatning ulushi uzluksiz o'shib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Viloyat aholisi asosan tabiiy o'sish hisobiga ko'paymoqda. Ushbu jarayonni tumanlar miqyosida tahlil qilish asosida ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tug'ilish koeffitsienti yuqori (24 promilledan ortiq) bo'lgan tumanlar: Payariq, Nurobod, Urgut.

2. Tug'ilish koeffitsienti o'rtacha (22-24 promille) bo'lgan tumanlar: Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Qo'shrobd, Samarqand, Pstdarg'om.

3. Tug'ilish koeffitsienti past bo'lgan (22 promilledan past) tumanlar: Toyloq, Paxtachi, Oqdaryo, Narpay, Kattaqo'rg'on[5;130].

Tabiiy ko'payish ham tug'ilishga mos holda ortib bormoqda. Tug'ilish, tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari 1991 yilga nisbatan 12 promillega pasayganligi va uning oxirgi 4-5 yil mobaynida yana biroz ko'tarilib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, 2006-2010 yillar davomida respublikada jami aholi soni 26663,8 ming kishidan 28453,7 ming kishiga yoki 6,7 foizga, Samarqand viloyatida esa, mos ravishda, 2912,0 ming kishidan 3140,2 ming kishiga, ya'ni 7,8 foizga ko'paygan. Tahlil qilinayotgan davrda respublikada aholining o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 1,34, Samarqand viloyatida esa 1,56 foizni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, so'nggi yillar davomida viloyatda aholining o'sish sur'ati respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Tabiiy ko'payish mintaqada o'rtacha 18 promille (2011 y.) atrofida. 2006-2010 yillar davomida viloyat bo'yicha jami aholi soni 228,2 ming kishiga ko'paygan. Aholi sonining ko'payishi viloyatning shahar va tumanlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Oqdaryo, Bulung'ur, Jomboy, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Qo'shrobd, Pstdarg'om, Nurobod, Urgut va Toyloq tumanlarida aholi sonining o'sishi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, Samarqand, Kattaqo'rg'on shaharlari va Narpay, Poyariq, Paxtachi, Samarqand tumanlarida esa, aksincha, past bo'lgan[5;131].

Aholi sonining o'sib borishi, birinchi navbatda, oilaning demografik rivojlanishiga bog'liqdir. Statistik ma'lumotlar tahlili Samarqand viloyatida yashovchi oilalar sonining ortib borayotganligini ko'rsatadi. Jumladan, 2006 yilda viloyat bo'yicha oilalar soni 716,6 mingtani tashkil etgan bo'lsa,

2010 yilga kelib bu miqdor 753,2 mingtaga etgan yoki 5,1 foizga ko'paygan. SHunga bog'liq holda bitta oilaga to'g'ri keluvchi farzandlar soni 4,0 nafardan 4,1 nafarga oshgan; 2 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalar soni 2006 yilda 132,4, 2010 yilda esa 158,7 ming tani tashkil etgan yoki 19,8 foizga ko'paygan. Aholi sonining ortib borishi bilan viloyatda aholi zichligi ham ortib bormoqda. 1991 yil o'rtacha 1 kv.km ga 130 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 194 kishi teng bo'lgan. Bu esa aholining hududiy tarkibida turli tafovutlar va muammolar borligini ko'rsatadi. Aholining eng yuqori zichligi Samarqand qishloq tumaniga to'g'ri keladi (590), ikkinchi o'rinda (552) Toyloq tumani turadi. Bu tumanlar ko'rsatkichlari respublikada aholi zichligi eng yuqori bo'lgan Andijon viloyatiga o'xshab ketadi. SHuningdek, Urgut, Narpay, Pastdarg'om tumanlarida ham zichlik ko'rsatkichlar yuqori. Aholi siyrak joylashgan hududlar asosan tog'li hududlar bo'lib, bu erdagi tumanlarda aholi zichligi 1 kv. km ga (24-47) kishi, vaholanki, uning ikki tumani (Nurobod va Qo'shrabod) viloyat maydonining 40 foizini egallaydi[5;132].

So'nggi yillarda shahar aholi manzilgohlaridagi aholining mutloq soni pasayib bormoqda, lekin qishloq aholi manzilgohlarida hamon ko'payish davom etmoqda. Viloyatda tug'ilish ko'rsatkichining yuqori darajada davom etayotganligi mehnat resurslarining o'sish sur'atiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada mintaqadagi mehnat resurslari soni mamlakatdagi o'rtacha ko'rsatkichdan yuqoridir. Mamlakatdagi bunday hududlarga nafaqat Samarqand viloyati, balki Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlari ham kiradi.

Viloyat mehnat resurslarining salohiyati hududdagi demografik rivojlanish ta'siri natijasida yildan-yilga oshib bormoqda. Agar viloyat mehnat resurslari sonining dinamikasiga e'tibor qaratilsa, 2000 yilda 1256,2 ming, 2006 yilda 1668 ming, 2010 yilda 1782,1 ming, 2011 yilga kelib esa, 1900,2 ming kishiga etgan. Boshqacha qilib aytganda, 2000-2011 yillar davomida mehnat resurslarining soni 151,2 foizga o'sganini ko'rish mumkin.

Samarqand viloyatida mehnat resurslari va aholi bandligi ko'rsatkichlari (ming nafar hisobida)

Ko'rsatkichlar	2000	2002	2004	2006	2008	2010	2011	2000-2011 yillarda o'sish, %
Doimiy aholisoni	2568,7	2749,8	2835,1	2912,8	3003,4	3119,8	3270,8	127,3
Mehnat resurslari	1256,2	1328,0	1418,2	1668,1	1672,2	1782,1	1900,2	151,2
Ish bilan band bo'lganlar	867,8	949,6	1075,6	1080,7	1152,0	1229,9	1269,8	146,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasi ma'lumotlari.[5;133]

Aholi sonining o'sib borishi ko'rilayotgan hududdagi mehnat resurslarini ortishiga qaramasdan ulardan foydalanish ko'ratkichi nisbatan past. 2000 yilda jami ish bilan band bo'lganlar 867,8 ming, 2006 yilda 1080,7 ming, 2010 yilda 1229,9 ming, 2011 yilga kelib esa 1269,8 ming kishini tashkil etgan[5;134]. O'tgan 10 yil davomida ish bilan band bo'lganlar soni 14,6 foizga ko'paygan. Statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, viloyatda 2000 yildan keyin aholining ish bilan bandlik ko'rsatkichi, mehnat resurslariga nisbatan hisoblanganda, pasayganligi ko'zga tashlanadi. Aholi bandligini yuqoriligi uning joylashuviga ham bog'liqdir. O'rganilayotgan hudud aholisining joylashuviga ko'ra tog' va tekislik rayonlariga ajratish mumkin. Aholining asosiy qismi intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan tumanlarda, Samarqand shahri atrofida, tog' oralig'idan oqib chiqqan soylar bo'ylarida joylashgan. Tog' va tog'oldi rayonlaridagi Qo'shrabod, Payariq,

Jomboy, Bulung'ur, Toyloq, Urgut, Samarqand tumanlarida qishloq aholisining 54 foizi, jami aholining 45 foizi yashaydi[5;135]. 2020 yilda aholi sonining oshishi bo'yicha Urgut, Past Darg'om tumanlari hamda Samarqand shahri yetakchilik qildi. 2020 yilning 1 oktyabr holatiga ko'ra Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 3928,7 ming kishini tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2019 yilning mos davrida 3857 ming kishini tashkil qilgan edi. Aholi sonining oshishi ko'rsatkichi bo'yicha Urgut, Past Darg'om tumanlari hamda Samarqand shahri yetakchilik qilmoqda. Jumladan, shahar aholisi o'tgan yilning 1 oktyabridagi 544,4 ming kishidan 550,8 ming kishiga yetgan. Ya'ni, 6, 4 mingga ko'paygan[7].

Umuman, Samarqand viloyatining demografik ko'rsatkichlari 2023- yilning 1-yanvar holatiga quyidagi statistik raqamlarda o'z ifodasini topdi. Ya'ni aholi soni –4118,4 ming kishi; ayollar soni – 2045,1 ming kishi; erkaklar soni – 2073,3 ming kishi; shaharda yashovchilar –1513,4 ming kishi va qishloqda yashovchilar – 2605,0 ming kishini tashkil etdi[8].

4. Xulosalar:

Ko'pchilik aholining qishloqlarda yashashi hududlardagi mavjud mehnat resurslarini to'liq ish bilan ta'minlay olmaydi. Bunday jarayon mehnat resurslari sonining ortishi va mehnat migratsiyasining asosiy sabablaridan biridir. Hozirgi vaqtda har bir mintaqada bo'lgani singari viloyatda ham aholining ish bilan bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o'rni nihoyatda katta bo'lib, u jami band aholining 81 % tashkil etadi[5;136]. Umuman olganda, mintaqada bu sohani rivojlantirish uchun bandlik muammosini bartaraf etish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятига оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами.-Т.,2015.Lex.uz. (Collection of legal documents on the activities of self-government bodies of citizens.-T., 2015. Lex.uz.)
2. Маҳалла: ижтимоий ҳимоянинг ҳуқуқий асослари. Ҳуқуқий- мийёрий ҳужжатлар тўплами.Тошкент-2010. Lex.uz. (Mahalla: legal basis for social protection. Collection of legal documents. Tashkent-2010. Lex.uz.)
3. Ўзбекистон Республикаси маъмурий-ҳудудий тузилиши топонимик объектларга ном бериш ва уларни номларини ўзгартириш масаласини ҳал этиш тартиби тўғрисида қонун. 1996 йил 30 август. Lex.uz. (Law on the procedure for resolving the issue of naming and changing the names of toponymic objects of the administrative-territorial structure of the Republic of Uzbekistan. August 30, 1996 Lex.uz.)
4. Сувонкулов И. Самарқанд –Жаҳон маданияти бешиги. Зарафшон нашриёти. – Самарқанд, 2012. – Б.5. (Suvankulov I. Samarkand is the cradle of world culture. Publishing house "Zarafshan", Samarkand. 2012. – P.5.)
5. Ибрагимов Л.З. Самарқанд вилояти демографик ривожланишининг меҳнат ресурслари ва аҳоли бандлигига таъсири. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 42-жилд. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2013 йил. -197 бет. (Ibragimov L.Z. The impact of the demographic development of the Samarkand region on labor resources and employment. Information of the Geographical Society of Uzbekistan. Volume 42. Collection of scientific articles. – Tashkent, 2013. - 197 pages.)
6. Ўзбекистон Республикасида маъмурий ҳудудий бирликлар, аҳоли манзилгоҳлари ва тарихий жойларга ном беришни тартибга солиш тўғрисидаги қарор. 2004 йил 11 август. Lex.uz.(Decision on regulating the naming of administrative territorial units, settlements and historical places in the Republic of Uzbekistan. August 11, 2004. Lex.uz.)
7. <https://yuz.uz/uz/news/samarqand-shahri-aholisi-550-mingdan-oshdi>
8. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34600-0_samarqand_viloyatining-demografik-ko-rsatkichlari-raqamlarda-2
9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Samarqand_viloyati

10. Abdimo‘minov T.A. Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi Abduxoliqova M.A. Termiz davlat pedagogika instituti talabasi SAMARQAND VILOYATI AHOLISI JOYLASHUVINING HUDUDIIY JIHLTLARI / <https://cyberleninka.ru/article/n/samarqand-viloyati-aholisi-joylashuvining-hududiy-jihatlari>. "Экономика и социум" №12(103)-1 2022 www.iupr.ru/ - В.4-7.

ЎТМИШГА НАЗАР

1 МАХСУС СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
SPECIAL ISSUE 1

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000